

**HUDUDLARDA YENGIL SANOAT KORXONALARINI  
RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

*Xujakulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d. (PhD), dotsent,  
Qarshi davlat texnika universiteti*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada hududlarda yengil sanoat korxonalarini rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari, ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda raqobatbardoshligini kuchaytirish masalalari tadqiq etilgan. yengil sanoat tarmog‘ining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni, hududiy rivojlanish xususiyatlari va tarmoqning barqaror o‘shishiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilingan. shuningdek, investitsiyalarni jalb etish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni raqamlashtirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda klaster tizimini rivojlantirishning amaldagi holati o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** yengil sanoat, hududiy rivojlanish, investitsiya, innovatsiya, raqamlashtirish, klaster, eksport salohiyati, iqtisodiy samaradorlik, raqobatbardoshlik, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm.

**Abstract:** this article examines modern mechanisms for the development of light industry enterprises in regions and issues related to improving their economic efficiency and competitiveness. the role of the light industry in the national economy, regional development characteristics, and factors affecting sustainable industry growth are analyzed. the study also investigates the current state of investment attraction, implementation of innovative technologies, digitalization of production processes, expansion of export potential, and development of cluster systems.

**Keywords:** light industry, regional development, investment, innovation, digitalization, cluster, export potential, economic efficiency, competitiveness, organizational and economic mechanism.

**Kirish.** Hududlarda yengil sanoat korxonalarini rivojlantirish bugungi kunda milliy iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Yengil sanoat korxonalarini rivojlantirish mexanizmlarining asosini iqtisodiy, tashkiliy, institutsional, investitsion va innovatsion omillar tashkil etadi. Mazkur mexanizmlar korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, eksport salohiyatini kengaytirish hamda raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Hududiy iqtisodiyotda yengil sanoatning rivojlanishi sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish, mahalliy xom ashyo resurslaridan samarali foydalanish va hududlarda yangi ish o‘rinlari yaratishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatining rivojlanishi xom ashyoni chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish imkonini bermoqda. Shu sababli hududiy yengil sanoat korxonalarining samarali faoliyat yuritishi ko‘p jihatdan zamonaviy boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishiga bog‘liq.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Yengil sanoat iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, aholini ish bilan ta‘minlash, eksport salohiyatini oshirish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda yengil sanoat korxonalarini rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari iqtisodchi olimlar, xalqaro tashkilotlar va amaliyotchilar tomonidan keng o‘rganilmoqda.

M.Castells raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalarining ishlab chiqarish jarayonlariga ta‘sirini o‘rganib, zamonaviy iqtisodiyotda korxonalarining muvaffaqiyati raqamli transformatsiya darajasiga bog‘liqligini asoslagan. Bu yondashuv yengil sanoat korxonalarida Industry 4.0 elementlarini joriy etish zaruratini ko‘rsatadi [5].

E.Gaidar sanoat korxonalarining bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanishi uchun qulay institutsional muhit yaratish zarurligini ta‘kidlagan. Uning tadqiqotlari davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va bozor mexanizmlarini uyg‘unlashtirish masalalariga qaratilgan [4].

S.S.G‘ulomov raqamli iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish masalalarini tadqiq etib, korxonalar faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorlikni oshirishini ilmiy jihatdan asoslab bergan [1].

Q.X.Abdurahmonov iqtisodiyotda bandlik va mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalalarini o‘rganib, yengil sanoat tarmog‘ining yangi ish o‘rinlari yaratishdagi ahamiyatini ko‘rsatib bergan [3].


Bundan tashqari, O‘zbekiston iqtisodchi olimlari tomonidan yengil sanoat tarmog‘ida klaster tizimini rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish masalalari keng tadqiq etilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada mintaqalarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik holati va dinamikasi o‘rganildi va tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida fanning dialektika, iqtisodiy tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, statistik guruhlash, monografik kuzatish, induksiya, deduksiya, mantiqiy va abstrakt fikrlash hamda istiqbolli bashoratlash usullaridan keng foydalanilgan.

**Tahlillar va asosiy natijalar.** Hududlarda yengil sanoat korxonalarini rivojlantirishda investitsion mexanizm muhim ahamiyatga ega. Investitsiyalar ishlab

chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv tajribalarini amaliyotga joriy etish imkoniyati kengayadi.

Investitsion mexanizm samaradorligi, avvalo, hududlarda shakllantirilgan qulay biznes muhiti bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Chunki investitsiyalar oqimining hajmi, tarkibi va barqarorligi investorlar uchun yaratilgan iqtisodiy, huquqiy va institutsional sharoitlarga bog'liq ravishda shakllanadi. Ayniqsa, hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida soliq imtiyozlari, kredit-moliya qo'llab-quvvatlash tizimi, erkin iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalarini hamda sanoat parklarining tashkil etilishi investitsion faollikni rag'batlantiruvchi muhim omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.




1-RASM. YENGIL SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Hududlarda investitsion jozibadorlikni oshirishda soliq imtiyozlari alohida ahamiyatga ega. Davlat tomonidan yangi tashkil etilayotgan korxonalar uchun foyda solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i hamda bojxona to'lovlari bo'yicha berilayotgan imtiyozlar investorlarning xarajatlarini kamaytiradi va investitsiya loyihalarining

iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Natijada korxonalar ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga ko‘proq mablag‘ yo‘naltirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ayniqsa, yengil sanoat, to‘qimachilik, oziq-ovqat va farmatsevtika kabi tarmoqlarda berilayotgan soliq preferensiyalari hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, kredit-moliya qo‘llab-quvvatlash tizimi ham investitsion mexanizmning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratilishi, foiz stavkalarining subsidiyalanishi hamda uzoq muddatli investitsion kreditlarning berilishi ishlab chiqarish korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun aylanma mablag‘larni shakllantirish, texnologik uskunalarni xarid qilish va yangi ish o‘rinlarini yaratishda kredit resurslari muhim moliyaviy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlat kafolati asosida ajratilayotgan kreditlar investitsiya xavfini kamaytirib, investorlarning iqtisodiy faolligini oshiradi.

Innovatsion mexanizm ham yengil sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish mahsulot tannarxini kamaytirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Ayniqsa, avtomatlashtirilgan tikuv uskunalari, raqamli loyihalash tizimlari va sun‘iy intellekt asosidagi boshqaruv texnologiyalari ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda.



2-RASM. INVESTITSION MEXANIZMNING YENGIL SANOAT RIVOJLANISHIGA TA‘SIRI<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi.


Raqamli iqtisodiyot sharoitida yengil sanoat korxonalarini boshqarishda algoritmik va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarini algoritmlash asosida boshqarish resurslardan foydalanishni optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Hududlarda yengil sanoat korxonalarini rivojlantirishda klaster mexanizmi ham muhim o‘rin tutadi. Klaster tizimi xom ashyo yetishtirishdan tortib tayyor mahsulot ishlab chiqarish va uni eksport qilishgacha bo‘lgan jarayonlarni yagona tizim asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va korxonalar o‘rtasidagi kooperatsiyani kuchaytiradi.

Klaster mexanizmi hududlarda sanoat integratsiyasini rivojlantirish, logistika xarajatlarini kamaytirish va eksportbop mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, korxonalar o‘rtasidagi kooperatsiya ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Marketing va logistika mexanizmlari ham yengil sanoat korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim ahamiyatga ega. Mahsulotlarni xalqaro standartlarga mos ravishda ishlab chiqarish, brend yaratish va tashqi bozorlarda targ‘ib qilish eksport salohiyatini oshiradi. Zamonaviy logistika tizimlari esa mahsulotlarni iste‘molchilarga tezkor yetkazib berish va transport xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasida yengil sanoatni rivojlantirish bo‘yicha qator davlat dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirish, eksportni rag‘batlantirish, korxonalariga soliq va bojxona imtiyozlari berish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.



**3-RASM. YENGIL SANOATNI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH YO‘NALISHLARI<sup>2</sup>**

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi.

Qashqadaryo viloyatida ham yengil sanoatni rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy sharoit shakllanmoqda. Hududda paxta xom ashyosining mavjudligi, mehnat resurslari salohiyati va sanoat zonalarining rivojlanishi yangi tekstil va tikuv-trikotaj korxonalarini tashkil etishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, hududlarda raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini algoritmlash hamda investitsion faollikni oshirish orqali sanoat samaradorligini yanada kuchaytirish zarurati mavjud.

O'zbekiston yengil sanoatida iqtisodiy risklarni boshqarish tizimlarida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular korxonalar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

**1. Xom ashyo ta'minoti va narx risklari:** O'zbekiston dunyoda paxta tolasi ishlab chiqaruvchi yetakchi davlatlardan biri bo'lsa-da, qayta ishlash darajasi nisbatan past bo'lib qolmoqda. 2023-yilda yetishtirilgan paxta tolasining qariyb 90% mahalliy qayta ishlashga yo'naltirilgan bo'lsa-da <sup>[8]</sup>, korxonalar barqaror va kafolatlangan xom ashyo ta'minotiga doimo ega emas. Xalqaro paxta narxlarining o'zgaruvchanligi esa, tayyor mahsulot tannarxiga bevosita ta'sir ko'rsatib, korxonalarining raqobatbardoshligini pasaytiradi.

**2. Eksport bozorlarining o'zgaruvchanligi va siyosiy risklar:** O'zbekiston yengil sanoati mahsulotlari eksportining qariyb 70% MDH davlatlariga to'g'ri keladi <sup>[9]</sup>. Bu bozorlarning siyosiy va iqtisodiy beqarorligi, valyuta kurslarining keskin o'zgarishi va savdo to'siqlarining paydo bo'lishi eksport daromadlariga jiddiy xavf soladi. Rossiya va Ukraina o'rtasidagi mojarolar sababli, 2022-yilda eksport yo'nalishlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilib, ayrim korxonalar uchun yetkazib berish zanjirida uzilishlar yuzaga keldi <sup>[10]</sup>.

**3. Logistika va transport infratuzilmasi muammolari:** Dengizga chiqish imkoniyati cheklangan davlat sifatida, O'zbekiston uchun logistika xarajatlari yuqori bo'lib qolmoqda. Xalqaro transport xarajatlarining o'rtacha 25% ga oshishi <sup>[4]</sup> O'zbekiston eksportyorlari uchun qo'shimcha xarajatlarni yuzaga keltirib, mahsulot tannarxini oshirmoqda. Temir yo'l va avtomobil yo'llari infratuzilmasidagi ba'zi kamchiliklar ham yetkazib berish muddatlarining cho'zilishiga va operatsion risklarning ortishiga olib keladi.

**4. Moliya va kredit risklari:** Yengil sanoat korxonalari asosan bank kreditlaridan foydalanadilar. Yuqori foiz stavkalari, valyuta kurslarining tebranishlari (valyuta riski) va kredit olishdagi byurokratik to'siqlar moliyaviy barqarorlikka ta'sir qiladi. 2023-yil yakuniga ko'ra, O'zbekistonda yengil sanoat uchun berilgan kreditlarning ulushi umumiy kredit portfelining 10% dan ortig'ini tashkil etgan <sup>[11]</sup>, bu esa mazkur sektorda kredit riskining ahamiyatini ko'rsatadi.

**5. Malakali kadrlar yetishmovchiligi va innovatsion risklar:** Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish uchun malakali muhandislar, dizaynerlar va menejerlar yetishmovchiligi mavjud. Bu

esa yangi ishlab chiqarish jarayonlariga o'tishda innovatsion risklarni oshiradi va texnologik modernizatsiyani sekinlashtiradi. Korxonalarining innovatsiyalarga investitsiya kiritish bo'yicha tajribasining kamligi ham muammolar qatoriga kiradi.

Shu bilan birga, O'zbekiston yengil sanoatida iqtisodiy risklarni samarali boshqarish uchun bir qator imkoniyatlar va rivojlanish istiqbollari mavjud. Hukumatning sohaga berayotgan e'tibori, paxta-to'qimachilik klasterlari tizimining rivojlanishi xom ashyo ta'minoti barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. 2023-yilda klasterlar tomonidan qayta ishlash hajmi 92% ga yetgan, bu esa to'liq qiymat zanjiri bo'ylab integratsiyani kuchaytirmoqda. G'alati, GSP+ preferensiyalar tizimiga qo'shilishi O'zbekiston mahsulotlari uchun Yevropa bozorlariga imtiyozli kirish imkoniyatini yaratdi, bu esa eksport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish va eksport risklarini kamaytirish uchun katta salohiyatga ega. Mahalliy tadqiqotlar, jumladan, Toshkent To'qimachilik va yengil sanoat instituti olimlari tomonidan o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, risk menejmenti strategiyalarini joriy etish korxonalar rentabelligini o'rtacha 5-7% ga oshirishi mumkin. Shuningdek, raqamlashtirish va "aqlli zavod" konsepsiyalarini joriy etish operatsion risklarni kamaytirib, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Hukumat tomonidan taqdim etilayotgan imtiyozli kreditlar va subsidiyalar esa moliyaviy risklarni boshqarishda muhim yordam beradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, yengil sanoat korxonalarida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish orqali, masalan, ta'minot zanjiri risklarini minimallashtirish natijasida ishlab chiqarish uzilishlari 15-20% ga qisqarishi mumkin. Bundan tashqari, valyuta risklarini hedging vositalari yordamida boshqarish eksportyor korxonalarining moliyaviy yo'qotishlarini 8-12% ga kamaytirishi mumkin. SWOT tahlili yordamida korxonalarining ichki kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, tashqi imkoniyatlar va tahdidlarni baholash, samarali risk strategiyalarini ishlab chiqishga asos bo'ladi. Mavjud muammolarga qaramay, O'zbekiston yengil sanoatining ulkan salohiyati, jumladan, mahalliy xom ashyo bazasi, arzon ishchi kuchi va GSP+ kabi imtiyozlar, iqtisodiy risklarni oqilona boshqarish orqali barqaror o'sishni ta'minlash imkonini beradi. Kelajakda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va blokcheyn kabi innovatsion yechimlarni risk menejmenti jarayonlariga integratsiyalash orqali risklarni prognozlash va ularga tezkor munosabat bildirish samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. G'ulomov S.S. Innovatsion iqtisodiyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
2. Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xalqaro moliya munosabatlari. – Toshkent: Sharq, 2019.
3. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2020.
4. Гайдар Е.Т. Долгое время. Россия в мире. – Москва: Дело, 2005.

5. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 1996.
6. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.
5. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. – Geneva: World Economic Forum, 2016. – 172 p.
6. Usmonov B.B. Yengil sanoatda innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish. – O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2022, № 2. – B. 40-45.
7. Дустова М. Х. ЭВОЛЮЦИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ УЧЕНИЙ В ГОСУДАРСТВАХ ШЁЛКОВОГО ПУТИ: ОТ ДРЕВНИХ ФОРМ ТОРГОВЛИ ДО ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ ИМПЕРИЙ //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. Special Issue 46. – С. 68-71.
8. Дустова М. Как знания женщин формируют уровень общества //E Conference Zone. – 2024. – С. 10-14.
9. Дустова М. Х., Махмутуллаева С. Х. ПРЕОДОЛЕНИЕ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ПРЕПЯТСТВИЙ ДЛЯ УВЕЛИЧЕНИЯ ЭКСПОРТА ФРУКТОВ И ОВОЩЕЙ //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. Special Issue 42. – С. 538-542.
10. Dustova M. Globalization and Anti-Globalization Trends //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2024. – Т. 4. – №. 09. – С. 373-380.